

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**



«TEXNIKA» fakul'teti

«Mashinasozlik texnologiyasi» kafedrası

**«Kasbiy ta'lim uslubiyoti. O'qituvchining nutq
madaniyati» fanidan**

Bilim sohasi - 300000- Ijtimoiy fanlar, biznes va xuquq

Ta'lim sohasi - 340000 – «Biznes va boshqaruv»

Ta'lim yo'nalishi – 5140900 – Kasb ta'limi (5340100 – Iqtisodiyot tarmoqlar
bo'yicha)

***kurs ishlari mavzulari va uvi bajarish
bo'yicha uslubiy ko'rsatma***

ANDIJON - 2012

«TASDIQLAYMAN»

Oquv - uslubiy kengash raisi
_____ Q.Ermatov

« 29 » avgust 2012 yil.

«Ma'qullangan»

«Texnika» fakul'teti uslubiy kengashida muhokama
qilingan va ma'qullangan № sonli bayonnomasi
Kengash raisi _____ Q.Qosimov
« 28 » avgust 2012 yil.

«Tavsiya etilgan»

«Mashinasozlik texnologiyasi» kafedrası
majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.
Kafedra mudiri _____ X.Akbarov
kafedra majlisining № sonli bayonnomasi
« 27 » avgust 2012 yil

Taqrizshilar:

- 1.G.Bozorova I.f.n, dotsent – And MII «Ijtimoiy fanlar» kafedrası mudirasi
- 2.Qo'ziboeva M -And DTI "Tillar "kafedrası katta o'qituvshisi

Tuzuvshi:

Assistent O.Po'latova

Kirish.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi qonuni» va «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» da ta'lim olishning barcha yo'nalishlaridan samarali foydalanish masalasi qo'yilgan. Hususan o'zini -o'zi malakasini oshirish, mustaqil ta'lim olish, o'quv va ilmiy adabiyotlar ustida ishlay olish salohiyatini tarbiyalash, mustaqil fikr va mulohaza yuritadigan milliy kadrlar bo'lib etichish alohida ta'kidlanadi.

Ma'lumki, Oliy ta'lim olishning alohida, o'ziga xos shakllaridan biri ma'lum fanlar bo'yicha kurs ishlari yozishdir. Kasb ta'limi yo'nalishida «Kasbiy ta'lim metodikasi. O'qituvchining nutq madaniyati » fanidan ham kurs ishi bajarish belgilangan bo'lib, baxoliquidrat ularning mutaxassisliklari bo'yicha olayotgan bilimlarini mustahkamlash, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishga yordam beradi. Gap shundaki talabaning ushbu fandan muxtasar bilim olishi uning boshqa mutaxassislik fanlaridan mukammal bilim olishining nazariy – ilmiy kafolati bo'lib xisoblanadi. SHuning uchun talaba «Kasbiy ta'lim metodikasi. O'qituvchining nutq madaniyati » fanidan bajariladigan kurs ishiga alohida e'tibor berishi ko'zda to'tilgan nazariy va amaliy manbalar ustida jiddiy ishlashi lozim bo'ladi.

Kurs ishi mavzusi kafedra tomonidan fanning dolzarb muammolari bo'yicha tuziladi va tasdiqlanadi, u talabalarga ma'lum tartib bo'yicha biriktiriladi. Talaba mavzuni olgach berilgan adabiyotlar bilan tanishadi, ularni o'qib o'rganadi, nazariy bilim olgach ma'lum ta'lim maskanlari kasb hunar kollejlari va litseylarda zarur amaliy materiallarni to'playdi, ularni taxlil kiladi, nazariy masalalar bilan uyg'unlashtiradi.

Kurs ishi mustaqil o'rganish mahsulidir. SHuning uchun u ilmiy xarakterda bo'lishi tabiiydir. Demak, talaba o'z mavzusi darajasida ma'lum ilmiy umumlashmalar qiladi, taklif va mulohazalar ilgari suradi, o'zining ilmiy izlanuvchanlik salohiyatini namoyish etadi. Buning uchun mavzudagi rejani mohiyatini to'la anglab etishi, agar bu ishda u qiynalsa, kafedraga - ilmiy ish bo'yicha rahbariga murojaat qilib, rejaga o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Kurs ishi «Kasbiy ta'lim metodikasi. O'qituvchining nutq madaniyati »fanidan olgan bilimlarining yakuniy mahsulidir. Ayni chog'da u talabaning keyingi tadqiqotchilik faoliyati uchun boshlang'ich tamaltosh hamdir..

Kurs ishi yozib bo'lingach talaba uni ma'lum qabul qilingan qoidaga muvofiq rasmiylashtiradi, kafedraga topshiradi va ro'yhatdan o'tkazadi. Kurs ishiga rahbarlik qilgan o'qituvchi tomonidan ish taqriz qilinadi. Agar taqriz ijobiy bo'lsa, u himoya qilinadi, agar u salbiy taqriz bo'lsa, ish qaytariladi, ko'rsatilgan kamchiliklar va xatolar tuzatilib, qayta yozib, topshiriladi. Bu xaqda biz quyida yanada batafsilroq tanishtirib o'tamiz.

Kafedra Sizning yuqori darajadagi, barcha talablarga javob beriladigan ish yozishingizga muvaffaqiyat tilaydi.

1. Kurs ishining maqsadi va vazifalari.

Kurs ishining maqsadi - talabani nazariy va amaliy tayyorgarligini aniqlash, uning fikrlash qobiliyatini va olingan bilimlarining chuqurligini va sifatini belgilash xisoblanadi.

Kurs ishining maqsadidan kelib chiqadigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- mustaqil ravishda tanlangan kurs ishi mavzusi bo'yicha mavjud ta'lim-tarbiya muammolari mohiyatini nazariy va amaliy asoslash va mazmunli yoritilishi;
- Ta'limiy-tarbiyaviy jarayonlar mazmunini yanada teran va chuqur mantiqiy mushohada qilishi;
- Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkuraning asosiy qoidalarini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risidagi qonunda belgilangan tartib asosida xozirgi zamon xar tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirish sohasidagi dolzarb muammolarni singdirish;
- Ta'lim va tarbiya sohasidagi o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar asosida amaliy qo'nikmalar hosil qilish ;
- Prezidentimiz I. Karimov asarlarini, Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan ta'lim-tarbiyaga tegishli qonunlarni va Vazirlar Mahkamasi chiqargan me'yoriy xujjatlarni ishda o'zlashtirishi;
- Internet va statistik ma'lumotlar, xisobotlar va xujjatlarni tahlil qilish;
- Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan yo'l – yo'riq, xulosalar va ko'rsatmalarni ishlab chiqish.

Kurs ishini bajarish jarayoni o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lgani uchun to'g'ri tashkil etish, yoritilayotgan mavzuning sifatli bayon etilishiga ta'sir ko'rsatadi.

SHuning uchun kurs ishini bajarish davomida talaba o'z mehnatini quyidagi bosqichlar bo'yicha to'g'ri va samarali taqsimlashi katta ahamiyatga ega:

- kurs ishi mavzusini tanlash ;
- axborot uslubiy ta'minoti (adabiyotlar, internet) ma'lumotlarini yig'ish va ularni o'rganish;

- kurs ishi mavzusi rejasini tuzish ;
- mavzuga oid turli ma'lumotlar to'plash va qayta ishlash ;
- kurs ishini matnini yozish ;
- kurs ishini rasmiylashtirish;
- kurs ishi ximoyasi.

Kurs ishini bajarishda talaba o'z ustida mustaqil ishlashi bilan bir qatorda kurs ishi raxbarlari bilan zarur bo'lgan xolatlarda maslaxatlashishi va tegishli ko'rsatmalar asosida faoliyat ko'rsatishi zarur xisoblanadi.

2. Kurs ishi mavzusini tanlash.

Kurs ishini muvaffaqiyatli bajarilishining muhim omili – bu talabaning o'z qiziqishi va qobiliyatiga qarab mos mavzuni tanlashi xisoblanadi. SHuning uchun ushbu bosqichda talaba mavzu tanlashda sinchkov va ma'suliyatli bo'lishi lozim.

Kurs ishi mavzulari kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Mavzular soni talabalar sonidan ko'p bo'lishi kerak, ularning yo'nalishi o'quv dasturi doirasida va talabaning qobiliyati hamda imkoniyatlari darajasida bo'lishi kerak.

Kurs ishi mavzusi talabalarni nazariy bilimlarini mustahkamlashga va ijodiy fikrlashga qaratilgan bo'lishidan kelib chiqib belgilanishi kerak.

Kurs ishi raxbari talabaga tanlangan mavzu bo'yicha kurs ishi topshirig'ini rasmiylashtiradi va kafedra mudiri tasdiqlagandan so'ng topshiriqni talabaga beradi.

Kurs ishi topshirig'ida talabaning ismi sharifi, mutaxassisligi, kurs, guruxi, fan nomi, kurs ishi mavzusi, topshirish muddati bilan bir qatorda namunaviy reja (kirish, asosiy qism, xulosa va boshqalar) hamda adabiyotlar, me'yoriy xujjatlar va shu kabilar aks etishi lozim.

Kurs ishini bajarish jarayonida kurs ishi mavzusini o'zgartirish yoki boshqa mavzu tanlanishiga ruxsat etilmaydi.

3. Axborot uslubiy ta'minotini yaratish va ularni o'rganish.

Talaba kurs ishi mavzusini biriktirish to'g'risida ariza bergandan sung va kafedra uni tasdiqlagandan so'ng rahbar bilan maslaxatlashib adabiyotlar

to'plashiga kirichishi kerak. Bunda faqat darslik, balki boshqa fanlarni o'rganish davomida ko'rsatilgan adabiyotlar, statistik va internet ma'lumotlari, qonunlar, me'yoriy xujjatlar va boshqalarni ham o'rganishi lozim.

Undan so'ng ularning ichidan kurs ishi mavzusiga bevosita aloqador bo'lgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish va ularni topib bir qator tanishib chiqishi kerak, chunki boshlang'ich tanishuv natijasida talaba kurs ishi rejasini mustaqil ravishda tuzadi.

Adabiyotlar va internet ma'lumotlari bilan ishlashni mamlakatimizdagi tarbiya jarayonlariga ta'lluqli bo'lgan qonun va me'yoriy xujjatlarni o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Xar tomonlama mukammal yoritilgan va ilmiy ijodiy yondoshilgan kurs ishini bayon etish uchun ta'lim tarbiya borasidagi qonunlar, me'yoriy xujjatlarni bilish va ularni qo'llash katta ahamiyatga ega.

Kurs ishini bajarishda faqat uslubiy qo'llanmalarda va kurs ishi topshirig'ida tavsiya qilingan adabiyotlardan foydalanish bilan chegaralanib qolmasdan, imkoni boricha mustaqil xolda tanlangan adabiyotlarga asoslanish lozim, xatto xorijiy adabiyotlardan ham foydalanish ishni mazmunini boyishiga va yanada mukammal bajarilishiga yordam beradi.

4. Kurs ishi rejasini tuzish.

Kurs ishi tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslangan kirish qismidan, ilmiy raxbar bilan kelishib tuzilgan rejaga ko'ra nazariy va amaliy masalalar yoritilgan asosiy bo'limdan, shuningdek, xulosa va takliflar yozilgan xotimadan iborat ishdir.

Rejadagi ko'zda to'tilgan masalalar tarkibiy mavzuning mohiyatidan kelib chiqishi, aniq bo'lishi va o'rganilayotgan muammoni xar taraflama aks ettirishi muhimdir.

Rejadagi xar bir masala o'zaro bog'langan bo'lishi lozim, ularni yoritishda esa Kasb xunar kollejlari ta'lim muassasalari va akademik litseylari o'quv va amaliy-tarbiyaviy ish faoliyatiga bog'langan bo'lishi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

quyidagi ayrim mavzular uchun reja tuzish tartibi misol tariqasida keltirilmoqda:

Mavzu: Yoshlarni kasb xunarga yo'naltirishda ustoz-shogird an'analarining ro'li
Kirish.

Asosiy qism:

- 1.Ustoz shogird an'analarining rivojlanish tarixi
- 2.SHarq va G'arb mutafakkirlarining ustoz-shogird munosabatlari xaqidagi qarashlari
- 3.Ustoz shogird munosabatlarini amalga oshirish va undagi muammolar (KXK misolida)
- 4.Ustoz –shogird munosabatlarini yo'lga qo'yish va uning istiqbollari

Hulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilovalar

Mavzu: Ma'ruza va unga qo'yiladigan asosiy talablar

Kirish.

Asosiy qism:

- 1.Ma'ruzaning nazariy asoslari
2. Ma'ruzani bayon qilish uslublari
3. Ma'ruza jarayonida pedagogning kasbiy mahorati (KXK misolida)
- 4.Ta'lim - tarbiya samaradorligini oshirishda ma'ruzaning o'rni

Hulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilovalar

5.Ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash.

Ushbu bosqichda talaba adabiyotlar, internet ma'lumotlari va boshqa manbalar asosida mavzuni xar tomonlama yoritish maqsadida ma'lumotlar to'playdi va ular bo'yicha nazariy va amaliy taxlilni amalga oshiradi.

Kurs ishi nazariy jihatdan turli manbalardagi statistik ma'lumotlar taxliliga asoslangan bo'lib, mavzuga mos muammolar, takliflar, sxema, grafik, jadval va diagrammalarda mujassamlashtirilgan bo'lishi lozim.

6. Kurs ishi matnini yozish.

Kurs ishini bajarishda uni yozish va rasmiylashtirish muhim va ma'suliyatli bosqich hisoblanadi.

Kirish qismida talaba tanlagan mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, ahamiyati, uni o'rganish darajasi va kurs ishi bo'yicha o'z oldiga qo'ygan masalalar mazmunining qisqa (2-3 bet) bayon etadi.

Asosiy qismda belgilangan savollarni yoritishda masalaga uzviy bog'liq bo'lgan nazariy bilimlar bilan bir qatorda talaba tomonidan to'plangan materiallar, ma'lumotlar taxlil qilinadi. Olingan natijalar, yangiliklar, g'oya va fikrlar ilmiy jihatdan asoslanadi va o'rganilgan adabiyotlar, me'yoriy xujjatlar va boshqa manbalardan to'plangan ma'lumotlar to'la tahlil qilinadi. Ushbu yo'nalishda bajarilgan ishlarning mamlakatimiz va xorijiy davlatlar tajribasi ham bayon etilishi maqsadga muvofiq keladi. Agar talaba mavzu bo'yicha olgan natijalarni tanqidiy baxolay olsa kurs ishining qiymati yanada oshadi. Asosiy qismda rasmlar, chizmalar, grafiklar va jadvallar matn ichida ham keltirilishi mumkin.

Nazariy tomondan o'rganilayotgan masala chuqur yoritilgandan so'ng kurs ishini bajaruvchi nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan o'zaro bog'lay olishi kerak. Ish bo'yicha berilayotgan takliflar asosli bo'lishi va takliflar aniq, lo'nda va tushunarli qilib bayon qilinishi kerak.

Talaba kurs ishi matnini yozishda adabiyotlar va manbalardan olingan tsitatlar va mualliflarning qarashlari qo'shtirnoq ichida berilishiga e'tibor berilishi lozim.

Xulosa qismida kurs ishining barcha qismlari doirasida bajarilgan ishlarga umumiy yakun yasaladi. Ushbu kurs ishi doirasida erishilgan asosiy natijalar ko'rsatib o'tiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzishda ishning xulosa qismidan keyin keltiriladi, ro'yxatga faqat ishni yozish jarayonida muallif tomonidan foydalanilgan adabiyotlar, qonunlar, qarorlar, maqolalar, tezislar, avtoreferetlar, jurnallar, gazetalar va x.k.lar kiritiladi.

Amaldagi «Xujjatlarni bibliografik ro'yxatga olish» davlat standartiga muvofiq kurs ishlarida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida quyidagilar keltiriladi:

- kitob, monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalar uchun muallif (lar) ning familiyasi, ismi, va otasining ismi bosh xarflari, kitobning nomi, nashr joyi (shaxar), nashriyot nomi, nashr yili, betlar ;
- to'plamdagi maqolalar va tezislar uchun muallif (lar) ning familiyasi, ismi va otasining ismi bosh xarflari, maqola nomi, to'plamning nomi, nashr joyi (shaxar) nashr yili, betlar to'plamdagi maqola nomi to'plam nomidan // belgisi bilan ajratiladi.
- jurnaldagi maqolalar uchun muallifning familiyasi, maqola nomi, jurnal nomi yili, betlari, maqola nomi ham jurnal nomidan // belgisi bilan ajratiladi.

Kurs ishida foydalanilgan manbaalar adabiyotlar ro'yxatidan alfavit bo'yicha joylashtiriladi. Agar talaba ayrim ma'lumotlarni internetdan olgan bo'lsa, muallif va ishning nomi keyin WEB sayti ko'rsatiladi.

Kurs ishini yozish jarayonida talaba adabiyotlarida keltirilgan boshqa olim va mutaxassislarning fikrlarini keltirish mumkin. Bunday xollarda matnda ushbu adabiyotlardan foydalanilganlik belgisi qo'llaniladi.

Ayrim vaqtlarda mavzuga oid qonunlar, xukumat qarorlari va me'yoriy xujjatlardan aynan ko'chirmalar keltiriladi. Bunday hollarda satr osti izohi beriladi.

Satr osti izohlari sahifa so'ngida berilib, matnda har bir sahifa uchun ketma – ketlik asosida raqamlanadi yoki yulduzchalar bilan belgilanadi.

Kurs ishini yozishda talaba avallo raxbarning ko'rsatma va maslahatlariga rioya etishi zarurdir.

7. Kurs ishini rasmiylashtirish.

Kurs ishini rasmiylashtirish belgilangan talab va standartlarga javob berishi kerak.

Kurs ishi matni sahifaning ma'lum chegaralarida joylanishi chizma va jadvallarni rasmiylashtirilishi, bir xil formatdagi oq qog'ozlardan foydalanilishi ishini sifatli va umumiy talablar bo'yicha yoritilishiga olib keladi.

Kurs ishi asosan A4 (210x297 mm) formatidagi oq qog'ozlarga ko'k tushda (ruchkada) tushunarli tarzda, qisqartirishlarsiz, aniq va ravon tilda o'z qo'li bilan davlat tilida (rus guruxlarda rus tilida) yoki Microsoft Word matn muxarriri Times New Roman 14 shriftida matn 1.5 intervalda, chapdan 3 sm, yuqoridan 2.5 sm, quyidan 2 sm, o'ng tomondan 2sm belgilangan me'yorda kom'pyuterda yoziladi. Kurs ishi xajmi 30 -40 betni tashkil etishi lozim. Kurs ishi matnlari qog'ozning bir tomoniga xar sahifaga 25- 30 qator yoziladi. Har qatorda 7-8 ta so'z joylashishi mumkin. Barcha satr osti izohlari qaysi sahifaga tegishli bo'lsa, o'sha sahifada keltiriladi.

Har bir qism, jurnaldan kirish va hulos qismlari, ilovalar yangi sahifalardan boshlanadi. qismning nomi va matn orasi yaqqol ajralib turishi kerak. qismdagi sarlovhalar qismning tartib raqami bilan boshlanib, unda so'zlarning bo'g'in ko'chirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sahifa tartib raqami sahifaning pastki (yuqorigi) o'rta –qismida keltiriladi. Kurs ishida keltirilgan qismlar, shuningdek ilovalar ham sahifalanadi. Jild varag'i 1- bet sanaladi, unga tartib raqami qo'yilmaydi.

Kurs ishi qismlari quyidagicha joylashtiriladi: jild varag'i, mundarija, kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar.

Ilovada turli xujjatlar, katta xajimdagi chizmalar, jadvallar va shu kabilar beriladi. Kurs ishi yuzasiga taqriz uchun oq qog'oz qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Jild (titul) varag'i kurs ishining 1- beti bo'lib, unda Vazirlik, oliy o'quv yurtining nomi fakul'tet va kafedra, kurs ishi mavzusi, ta'lim yo'nalishi, kursi, guruxi, muallifning familiyasi, ismi va sharfi, ilmiy raxbarning ilmiy unvoni va darajasi, familiyasi, ismi va sharifi keltiriladi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

«Mashinasozlik texnologiyasi»

kafedrası

«Kasbiy ta'lim metodikasi. O'qituvchining nutq madaniyati» fanidan

КУРС ИШИ

Mavzu: _____
/ _____

Bajardi: ____kurs ____gurux «_____» yo'nalishi talabasi _____
/ _____

Tekshirdi: _____
Reyting bali _____

Andijon – 20__

8. Kurs ishi ximoyasi.

Kurs ishi ximoyasi kurs ishi bajarilishining yakuniy bosqichlaridan biri xisoblanadi.

Tugallangan kurs ishi belgilangan muddatda kafedraga tekshirish uchun topshiriladi. Past saviyada sifatsiz bajarilgan ishlar, ilmiy raxbarning yozma taqrizi bilan ishdagi kamchiliklarni to'ldirish va qayta ishlash uchun talabalarga qaytariladi. Belgilangan talablar darajasida sifatli bajarilgan ishlar ilmiy raxbar tomonidan kafedrada ximoya qilish uchun ruxsat beriladi.

Kurs ishi ximoyasi uchun xar bir talabaga 20-30 daqiqa vaqt beriladi. Ximoya jarayonida kurs ishi mavzusi doirasida savol va topshiriqlar berilishi mumkin.

Kafedrada kurs ishini ximoya qilish uchun maxsus komissiya tuziladi. Komissiya tarkibida etakchi mutaxassis, tajribali professor – o'qituvchilar va kurs ishi raxbari bo'lishi lozim, uning soni 3-4 kishidan ortmasligi kerak.

Kurs ishi ximoyasi komissiya tomonidan baxolanadi, so'ngra ximoya yakuni bo'yicha komissiya qarori e'lon qilinadi. Kurs ishlari, kaydnoma va taqrizlar bilan birga

kafedraga topshiriladi, so'ng arxivga saqlash uchun institut arxiviga ruyxat asosida topshiriladi.

Namunali bajarilgan kurs ishlari talabalarning ilmiy ishlari ko'riklariga, tanlovlarga tavsiya qilinishi mumkin.

Kurs ishida bayon qilingan ma'lumotlar va manbalardan talabalar tomonidan bitiruv malakaviy ishlarni yozish jarayonida foydalanilishi mumkin.

9. «Kasbiy ta'lim metodikasi. O'qituvchining nutq madaniyati» fanidan kurs ishi mavzulari

1. Talabalarni kasbga yo'naltirish
2. Pedagogik texnika va uning komponentlari tarkibiy qismlari.
3. Pedagogning rahbarlik roli.
4. Pedagogik qobiliyatlarni hosil qiluvchi hislatlar va xususiyatlar.
5. Pedagogning homiy yoki tarbiyachilik holati.
6. Odob va axloqni shaqllantiruvchi asosiy omillar
7. Mustaqil ishlar-talaba xulq madaniyatini shaqllantirishning asosiy omili.
8. Pedagogning kasbga oid mahoratini shaqllantirishda ta'sir ko'rsatish.
9. Ilmiy pedagogik ma'lumotlarni to'plash.
10. Pedagogning ta'lim jarayoniga ta'sir ko'rsatishi.
11. Eng qadimgi davrlardan VII aergacha bo'lgan davrda o'qituvchi ustoz shogird va ularning jamiyatdagi o'rni.
12. SHarq mutaffakirlari ustoz-shogird munosabatlari haqida
13. Jamoani shaqllantirish uslubiyoti
14. Ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiya
15. O'quv mashg'ulotlarini loyixalashtirish uslubiyoti
16. Pedagogik texnologiya monitoringi va o'qitish piramidasi
17. Ta'lim maqsadlariga erishilganini baxolash.
18. Ta'lim maqsadlariga erichish usullari.
19. Pedagogik mahoratni shaqllantirishning asosiy vositalari.
20. Dars jarayonida kasbiy mahorat.
21. O'qituvchining tarbiyachilik mahorati.
22. Kasbiy qobiliyatning pedagogik xarakteristikasi

23. O'quv tarbiya jarayonida pedagogik muloqotni boshharish uslublari.
24. Pedagogik jarayon mazmuni va tuzilmasi.
25. Kasbiy ta'lim tamoyillari.
26. Pedagogik jarayonni loyihalash.
27. SHaxsiy malakaviy bilimlar olish.
28. Kasbiy ta'limning samaradorlik mezoni.
29. Iqtisodchi-pedagog kadrlar tayyorlash mahorati.
30. Iqtisodchi-pedagog kadrlar tayyorlash malakasini oshirish.
31. Iqtisodchi-pedagog kadrlar tayyorlashda qo'llaniladigan metodlar.
32. O'quv-tarbiya ishining kadrlar bilan bog'liqligi.
33. Pedagogning dars jarayonida kasbiy mahoratii.
34. Dars jarayonini tashkil etishda pedagogning kasbiy mahorati.
35. Mehnat va kasb ta'limi uslubiyotining bog'liqligi
36. SHaxs bilim va malakalarni shaqllantirishda o'qituvchining kasbiy mahorati.
37. SHarqona tarbiya va uning muloqotga ta'siri.
38. Pedagog va talaba o'rtasidagi muloqot
39. Iqtisodiy tarbiyada ilg'or tadbirkor va ishbilarmon shaxslar faoliyatidan foydalanish.
40. Hozirgi davrda o'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni.
41. Innovatsion usullar bilan seminarlarni o'tish.
42. Darsda va darsdan tashhari vaqtda Pedagogning muloqoti.
43. Pedagogning kasbga oid mahoratini shaqllantirishda ta'sir ko'rsatish.
44. Ma'ruza va unga qo'yiladigan asosiy talablar.
45. Ta'lim mazmuni.
46. O'quvchilarni pedagogik kuzatish metodikasi
47. "Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar uslubiyoti" kursining predmeti, maqsadi va vazifalari
48. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning tashkil qilish milliy va nazariy asoslari
49. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va unga qo'yilgan pedagogik talablar
50. Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilishdan tashkilotchining ish metodikasi
51. Tashkilotchining O'quvchilar jamoasi bilan xamorlikda ish olib borish metodikasi

52. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishdagi pedagogik maxorat va uning asosiy tamoyillari
53. O'qituvchining O'quvchilar jamoasi bilan ishlash usullari
54. Maktab oila va jamoatchilik xamkorligi
55. Ta'lim-tarbiyada talabalarning individual psixologik xususiyatlarni e'tiborga olish.
56. O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov asarlarida yoshlar tarbiyasi xaqidagi masalalar.
57. I. A. Karimov asarlarida milliy o'zlikni anglash g'oyalarini yoritilishi.
58. Ishbilarmonlik, tejamkorlik fazilatlarini tarbiyalashda oilaning roli.
59. Iqtisodiy tarbiyada ilg'or tadbirkorlik va ishbilarmon shaxslar faoliyatidan namuna sifatida foydalanish.
60. Kasb-xunarga yo'naltirishda mehnat tarbiyasining ahamiyati.
61. Tarbiyachi faoliyatida tashkilotchilik qobiliyati.
62. Kasb-hunar kollejlarda bilimlarni nazorat qilish undagi xatoliklarning shaxs tarbiyasiga ta'siri.
63. Kasb-xunar kollejlarda o'quvchilarning gigienik tarbiyasi.
64. Mustaqillik sharoitida axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish yo'llari va vositalari.
65. Islom Karimov asarlarida manaviyat va ma'rifat nazariyasining ishlab chiqilishi va uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati.
66. Mustaqil ishlar va ularni talabalar ta'lim tarbiyasidagi o'rni
67. Kadrlar tayyorlashda iqtisodiy tarbiyaning roli va o'rni.
68. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» da inson omili va uning iqtisodiyotga ta'siri.
69. Sinf majlislarini tashkil etish metodikasi.
70. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish

10. Axborot uslubiy ta'minot

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

- 1.«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» haqidagi O'zbekiston Respublikasining to'g'risidagi Qonuni. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami: Mualliflar jamoasi. – T.: SHarq, 2001, – 672 b.
2. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T., 1997 yil 29 avgust.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T., 1997 yil 29 avgust.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari

4. «Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tako-millashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2005 yil 3 iyun.
5. «Komp'yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 6 iyun.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

6. «O'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun darsliklar va o'quv adabiyotining yangi avlodini yaratish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 341-sonli Qarori.
7. «2010 yilgacha bo'lgan davrda o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi tizimi pedagog va muhandis pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturi» haqidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 4-oktyabrdagi 400-sonli Qarori.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

- 8.Karimov.I.A 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012 yil
- 9.Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. “Halq so'zi” gazetasi №28(4438)- soni. 9 fevral, 2011 yil
- 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 2011 yil 14 fevral, Toshkent shahri
11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir - T.: O'zbekiston, 2010 yil
- 12.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari – T.: O'zbekiston, 2009 y.
13. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Xalq so'zi., 2009 yil 14 fevral

14. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: «O'zbekiston», 2007 yil.
15. Karimov I.A. YAngilash va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamiz. O'zbekiston ovozi., 2007 yil 13 fevral.
16. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilichimiz lozim. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2006 yil 10 fevral.
17. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo'lishi darkor. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2006 yil 25 fevral.
18. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz–jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005. - 92b.
19. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T., O'zbekiston, 1999, 10-15-b.
20. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi – T.: SHarq, 1999, 25-30 b.
21. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barharorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1999, 41-45-b.
21. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992, 33-35-b.

V. O'zbekiston Respublikasi Vazirliklarining me'yoriy-huquqiy hujjatlari

22. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining “oliy ta'limga oid me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi 2000 yil 22 sentyabr 251 sonli buyrug'i.
23. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligining “Ijtimoiy, gumanitar fanlar bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlash va nashr etish to'g'risida”gi 2000 yil 19 iyun 176 sonli buyrug'i.

VI. Darsliklar

24. Omonov N.T., Xo'jaev N.X., Madyorova S.A., Eshchonov E.U., “Pedagogik texnologiyalar va pedmohorat” Toshkent “Iqtisodiyot – Moliya” 2011 yil.
25. Ibragimov I. X., Yo'ldoshev I. A. Bobomirzaev X. “Pedagogik psixologiya”. Toshkent – 2009 yil.
26. Tolipov O'., Usmonboeva M. “Pedagogik texnologiya” nazariya va amaliyot. Toshkent “Fan” 2005 yil.
27. Yo'ldoshev U. A. “Interaktiv dars usullari” Navoiy 2004 yil.
28. Yo'ldoshev J. G'. “YAngi pedagogik texnologiyalar” Toshkent “Fan” 2004 yil.
29. Azizxo'jaeva. N. N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” Nizomiy nomli TDPU Toshkent 2003 yil.
30. Saidaxmedov N. “YAngi pedagogik texnologiyalar” Toshkent “Moliya” 2003 yil.
31. Omonov N.T., Xo'jaev N.X., Madyorova S.A., Eshchonov E.U., “Pedagogik texnologiyalar va pedmohorat” Toshkent “Iqtisodiyot – Moliya” 2009 yil.

VII. O'quv qo'llanmalar

32. Mualliflar guruhi. O'zbekistonda biznes keyslar: O'zbekiston Respublikasidagi biznes ta'limotida "Keys-stadi" uslubining qo'llanilishi. O'quv qo'llanma. – T.: Akademiya, 2006. – 645 b.
33. Довудова Л.А. Информационные системы в эконике в вопросах и ответах: Учебное пособие. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. – 280 с.
34. Педагогика. Конспект + Шпаргалка. Экзаминационные ответы / для студентов вузов. – М.: изд-во «Буклайн», 2005. – 145 с.
35. Mamajonov I. Kasbiy ta'lim uslubiyoti. Ma'ruzalar matni. – T. 2005, 19-23-b.
36. Xo'jaev N., SHaripov SH. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar matni. – T. 2005, 30-36-b.
37. Inomov I., Mamajonov I. Iqtisodiy tarbiya nazariyasi. – T.: Talaba, 2005, 38-43-b.
38. Mamajonov I.. YAngi pedagogik texnologiyalar. Masalalar to'plami. – T., 2005, 37-56-b.
39. Mamajonov I.. Kasbiy ta'lim uslubiyoti. Masalalar to'plami. – T., 2005, 44-56-b.
40. Xo'jaev N., J.Xasanboev. Iqtisodiy pedagogika.(o'quv qo'llanma). – T.: TDIU, 2004, 57-62-b.
41. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004,13-21-b.
42. Saidahmedov N. YAngi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003, 45-47-b.
43. D. Tojiboeva. Iqtisodiyot nazariyasi fanini o'qitish metodikasi. – T., 2003, 61-67-b.
44. Xo'jaev N. va boshqalar. Pedagogika asoslari. – T., 2003, 7-11-b.
45. Xo'jaev N. va boshqalar. Ta'lim nazariyasi. – T., 2003, 13-19-b.
46. Ziyomuhhammadov B., Abdullaeva SH. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. «Ma'naviyat asoslari» darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma. – T., 2002, 13-16-bet.
47. Xo'jaev N. va boshqalar. YAngi pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2002, 41-46-b.
48. Tojiev M., Salaxutdinov R., Barakaev M., Abdalova S. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T., 2001, 35-39-b.
49. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmuni, loyihalashtirish va amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. TESIS loyihasi. – T., 2001, 21-26-b.
50. Ochilov M. YAngi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – N.: Nasaf, 2000, 21-28-b.

VIII. Internet saytlari:

51. www.gov.uz – Xukumat sayti
52. www.press-servise.uz – Prezident sayti
53. www.edu.uz – Vazirlik sayti
54. www.ziyo.edu.uz – Vazirlik sayti
55. www.tseu.fan.uz – TDIU sayti
56. www.tseu.uz - TDIU sayti

57. www.glef.org,
58. www.newhorizons.org,
59. www.rhecherswithoutborders.org,
60. www.thelearningweb.net,
61. www.inetlibrary.com

6.3. Axborot-texnik vositalar.

Fani o`rganishda kompyuter vositalari, standart dasturlar, ko`rgazmali Qurollar, Internet materiallari hamda interaktiv usullar qo`llaniladi.

